




Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

A. G'ULOMOV



HUQUQSHUNOSLIK

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

A. G'ULOMOV

HUQUQSHUNOSLIK

(Uslubiy qo'llanma)

Samarkand davlat universiteti
quv-uslubiy Kengashi tomonidan
nashrga tavsiya etilgan (2013-yil
20-dekabr, bayonnomá №4).

16 FAKULTETI
ARM

Samarqand - 2014

UDK 34
KBK 67
H 87

A.G'ulomov. Huquqshunoslik. Uslubiy qo'llanma. –
Samarqand: SamDU nashri, 2014. – 100 bet.

Uslubiy qo'llanma oliv o'quv yurti talabalariga o'tiladigan "Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi" o'quv kursining "Huquqshunoslik" qismi bo'yicha tayyorlangan. Bu uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'ita maxsus ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur hamda ishchi o'quv dasturida nazarda tutilgan mavzularni qamrab olgan bo'lib, talabalarga ma'ruba va seminar darslariga tayyorgarlik ko'rishda hamda huquq sohasi to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishda va mustahkamlashda amaliy ko'mak beradi.

Mas'ul muharrir: yuridik fanlari doktori, professor
Muqimov Ziyodulla Yusupovich

Taqrizchilar: yuridik fanlari doktori
Mamatov Xudoyor Teshayevich
yuridik fanlari nomzodi, dotsent
Qo'ldoshev Muhammad Mahmudovich

ISBN 978-9943-4327-5-8

© Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

KIRISH

Ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini huquqiy jihatdan aniq-ravshan tartibga solish, bir qancha huquqshunoslik muammolari kompleksini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan hal etish kerak,¹ – degan edi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillik yillari davomida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo'g'rilgan o'ziga xos rivojlanish yo'lini aniqlab oldi.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni qurish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy qonunchiligidizni shakllantirish va takomillashtirishdan boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu islohotlar mazmunini anglab yetishda mamlakatda yashayotgan har bir fuqaro qonun hujjatlari bilan ta'minlab berilgan huquq va erkinliklarini bilishi lozim. Insonning jamiyatda shaxs sifatida shakllanishida ular tomonidan egallangan huquqiy bilimlar muhim o'rinni tutadi. Shu sababli hozirda oliv o'quv yurtlariida "Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" o'quv kursi bo'yicha 56 soat hajmida o'quv mashg'ulotlari olib borilmoqda. Inson qaysi sohanini tanlamasini, qaysi sohada faoliyat ko'satmasini, u huquqiy hodisalaridan xabardor bo'lmog'i, huquq normalarining mazmunini anglab yetmog'i zarur. Chunki, insonlar har kuni yoki kundalik hayotda o'nlab huquqiy munosabatlarga kirishadilar, biroq unga e'tibor bermaydilar. Faqat huquqlari buzilgandagina o'z harakatini tahlil qila boshlaydi. Shu sababli jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni oshirish huquqshunoslikka oid bilimlarni egallah lozim. Ularga bu masalada huquqshunos olimlar tomonidan yaratilgan doktrinal manbalarning o'mi beqiyos hisoblanadi. Shu ma'noda "Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" o'quv kursining

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 91 b.

“Huquqshunoslik” qismi bo‘yicha tayyorlangan uslubiy qo‘llanma ham ana shu maqsadga qaratilgan.

Uslubiy qo‘llanma yettita mavzu doirasida tayyorlangan bo‘lib, unda har bir mavzuga tegishli masalalar va ularning qisqa bayoni, tayanch iboralar, dars o‘tish vositalari, dars o‘tish usullari, mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar hamda masalalar ko‘rinishidagi tuzilishga ega. Mavzular vazirlik tomonidan tasdiqlangan namunaviy o‘quv dasturi va ishchi o‘quv dasturiga mos holda tadrijiy o‘rganilgan. Davlat va huquq masalalari, ma’muriy, mehnat, oila, fuqarolik, ekologiya, jinoyat huquqi sohalariga tegishli mavzular izchillikda bayon etilgan. Bunda har bir huquq sohasining bir-biridan farq qiluvchi belgilari, tushunchasi, predmeti, qo‘llanish tartibi va boshqa huquqiy fanlar bilan bog‘liqligini yoritib berishga harakat qilinadi.

Bu qo‘llanma bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bildirgancha muallif avvaldan o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

1-MAVZU DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI ASOSLARI

Reja:

- 1.Davlat va huquq tushunchasi, ularning mazmuni va mohiyati.
- 2.Davlat va huquqning paydo bo'lishi.
- 3.Davlat va huquqning shakllari.

Tayanch iboralar: davlat va huquq tushunchasi, mazmuni va mohiyati; davlat va huquqning paydo bo'lishi; davlat va huquqning shakllari; noramтив-huquqiy hujjatlar.

Dars o'tish vositalari: davlat va huquqning mazmunini aks etgan sxemalar, noutbuk, slaydlar-prezentasiya, ilmiy adabiyotlar, darsliklar o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, qonun hujjatlari va boshqalar.

Dars o'tish usullari: Ma'ruza materiallari bilan tanishtirish, mavzuning qisqa va lo'nda mazmuni aks etgan materiallarni talabalarga tarqatish, dars jarayonida talabalar o'rtasida o'zaro tortishuvchanlik tamoyildidan samarali foydalanish va ularning mustaqil fikrlarini tinglash, amaliy misollarga keng joy ajratish, tezkor so'rov, aqliy hujum va h.k.

1. Davlat va huquq tushunchasi, ularning mazmuni va mohiyati

Davlat va huquq nazariyasining *predmeti* davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va harakatda bo'lishining eng umumiylarini o'rganadigan huquq sohasi hisoblanadi.

Uzoq o'tmishdan ma'lumki, "davlat" tushunchasiga nisbatan faylasuflar tomonidan bir qator g'oyalar ilgari surilgan. Jumladan, buyuk grek faylasuflari Pluton va Aristotellarning fikricha, davlatni siyosiy aloqalar vositasida muayyan bir tarzda birlashgan va o'zaro bog'liq odamlar jamoasidir. Insoning o'ziga o'xshagan va ozod kishilar ustida hukmronligini o'rnatuvchi hokimiyat shu aloqalar asosini tashkil etadi.

XVI-XVIII asrlarda G'arbiy Yevropada davlat tushunchasi keskin o'zgardi. Davlat deganda, tobora ko'proq hukmdor va uning yaqinlari, xalq hokimiyyati organlari, amaldorlar, mansabdar shaxslar qatlamlari va shu kabilar birgalikda tushuniladigan bo'ldi.

Hozirgi vaqtida davlatning umumiy e'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarni ko'rsatish mumkin:

1.Davlat o'z davlat chegaralari darajasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning, barcha aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi:

2.Davlat suveren hokimiyatning yagona sohibidir.

3.Davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi:

4.Davlat o'z vazifalari va funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizmdir.

5.Davlat qonuniylik va huquq-tartibot posboni bo'lishga maxsus da'vat etilgan huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlariga ega bo'lgan yagona tashkilot.

6.Faqat davlatgina o'z mudofaasi, suverenteti, hududiy yaxlitligini va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'ladi.

Ijtimoiy hayotda keng qo'llaniladigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va muhofaza qiladigan regulyator sifatida "huquq" iborasini quyidagi ma'nolarda izohlash mumkin:

1.Muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqi. Masalan, Alining dam olish huquqi, yuridik shaxsning o'zi ishlab chiqargan tovarga nisbatan mutlaq huquqi.

2.Huquq hamma uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatiladigan va bajarilishi ta'minlanadigan, muhofaza qilinadigan qoidalar, me'yorlar majmuidir. Masalan, Fuqarolik Kodeksi. U fuqarolarning mulkiy va nomulkiy munosabatlarda huquq va manfaatlarini ta'minlashda ko'maklashadi.

3.Huquq ijtimoiy fan sifatida birining nomi bo'lib, davlat va huquq haqidagi bilimlarni o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, ma'muriy huquq fani davlat boshqaruv organlarida vujudga keladigan hodisalar haqidagi bilimlarni egallashda yordam-lashadi.

4.Huquq bu o'zida huquq normalari va huquq institutlarini jamlagan huquq sohasi sifatida ham tushuniladi. Masalan, mehnat huquqi, oila huquqi, uy-joy huquqi sohalari va boshqalar.

Aflatun va Arastu fanga siyosiy huquq tushunchasini kiritgan va uni tabiiy huquq hamda shartli huquqlarga ajratadi. Tabiiy huquq tan olish yoxud tan olmaslikdan qat'iy nazar hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan qoidalardir. Shartli huquq – insonlar tomonidan ularning xohish-irodasiga ko'ra o'rnatiladigan qoidalalar majmuidir. Qadimgi Rim mutafakkirlari huquqni yaxshilik, halol yashash, har kimga o'ziga munosibini berish, o'zgalarga zarar yetkazmaslik, ezungulik vaadolat san'atidir, deb ta'riflaydi.

Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr-al Farobiy huquqni fozil kishilarning haqiqiy baxtga erishish vositasi deb tushungan. Huquq, uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart-sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkon yaratish vositasidir. Huquq ehtiroslarni jilovlash vositasidir. Huquq – insonni asrash, avaylash quroldir.

Yuridik adabiyotlarda huquqqa turlicha ta'rif berilgan:

1.Huquq – bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qul-nadigan va qo'riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo'lgan yashash qoidalari. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi reguliyatordir.

2.Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va qonunlarda ifodalangan adolat va erkinlik g'oyalariga tayanuvchi normativ qoidalari tizimidir².

² Davlat va huquq nazariyasi. A.A'zamxo'jayev va Sh.O'razayev tahriri ostida. Toshkent. 1992. – 255 bet.

3.Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimidir.³

Huquqqa davlat arboblari tomonidan ham ta’rif berilgan. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov “Huquq ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomiga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirishni vositasi”dir deb ta’kidlaydi.⁴ Huquqning mohiyati – huquqning insoniyat uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Xulosa sifatida quyidagilarga alohida to‘xtalish o‘rinli:

1.Huquq nazariyasida davlat jamiyatni boshqarishni tashkil etish usuli, majburlov choralarini va vositalariga tayanadigan, ommaviy siyosiy hokimiyatni tashkil qiladigan siyosiy tizimning asosiy elementidir. Jamiyatni boshqaruvchisi sifatida davlat o‘zining ichki tuzilishiga, o‘z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlariga – davlat mexanizmiga, apparatiga ega. Konstitutsion huquqda davlat tushunchasi butun mamlakatda faoliyat yuritadigan barcha rasmiy hokimiyat organlari (parlament, hukumat, sud) va ma’muriy-hududiy birliklarda faoliyat yuritayotgan mahalliy davlat hokimiyati organlarida namoyon bo‘ladi.

2.Huquq tushunchasini ikki ma’noda tushunish mumkin. Tor ma’noda, davlat tomonidan o‘rnatilgan va sanksiyalangan umummajburiy ijtimoiy normalar tizimi va keng ma’noda, davlat tomonidan mustahkamlangan, kafolatlangan va muhofazalangan fuqarolarning asosiy huquqlari va huquqiy munosabatlardir.

³ Tajixonov U., Saidov A. Davlat va huquq asoslari. O‘quv qo’llanma. – Toshkent, 1999. – 40 bet.

⁴ Karimov I.A. O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – Toshkent: O’zbekiston. 1995. – 26 b

2. Davlat va huquqning paydo bo‘lishi

Jamiyat turli ijtimoiy-siyosiy institutlarga bo‘linadi. Jamiyatning birinchi tabiiy bo‘g‘inini tashkil etgan institut – oiladir. Oila tabiiy qonunga ko‘ra tashkil topadi, qon-qarindoshchilik munosabatlari asosida amal qiladi. Urug‘ bir necha oilaning qon-qarindoshchilik asosida birlashishi va mulkni idora qila olishi, umumiyligi, qarindoshchilik qoidalari asosida tashkil topishi bilan xarakterlanadi. Jamiyat taraqqiyotida bir necha urug‘larning qo‘shilishi bilan qabila, keyinchalik umumiy til, urf-odat kabi birlik asosida millat kelib chiqdi.

Siyosiy institutlarning eng dastlabkisi – davlat bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida davlat bilan birga bugun ko‘plab nodavlat tashkilotlar: kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, turli tuman ijtimoiy tashkilotlar yuzaga keldi.

Jamiyatda ijtimoiy ong va iqtisodiy munosabatlarning taraqqiy etishi davlat va davlatning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi nazariyalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, davlatning paydo bo‘lishi xususidagi teologik (ilohiy) nazariyasi davlatning kelib chiqishini Xudoning irodasi bilan bog‘laydilar. Podsho va cherkov vakillari Xudoning irodasini ifodalovchilardir. Shuning uchun ham fuqarolar ularning amriga so‘zsiz bo‘ysunishlari lozim bo‘ladi. Bu haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, qadimgi Bobilda Xammurapi qonunlari ga ko‘ra, podsho xudoga tenglashtirilgan, qadimgi Xitoyda imperator “osmon o‘g‘li”, Yaponiyada esa imperator quyosh xudosining avlodni sifatida ta’riflangan.

Patriarxal nazariyaga ko‘ra, davlat oilaning rivojlanishi asosida vujudga kelgan. Ibtidoiy oilaga ota boshchilik qilib, keyinchalik davlat vujudga keladi va ota hokimiyati merosiy bo‘ladi. Bu nazariya vakillari Aristotel, Platon Filmer, Genri Men, Mixaylovskiylar hisoblanadilar. Patriarxal nazariya qadimgi Gretsiya va Rimda keng tarqalgan. Aristotel davlat hokimiyatini “ota hokimiyatining davom etishi va rivojlanishidir” deb ta’kidlaydi.

Shartnoma nazariyasi vakillari (G.Grosiy, J.Russo, A.Radishyev, T.Gobbs, Lokk, B.Spinoza. XVII-XVIII asrlar)-ning fikricha, davlat hokimiyati kishilarining o‘zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganliklarining ifodasidir. Bunda davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlar tizimi vujudga kelib, o‘z navbatida ularda shartnoma majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarlik tug‘iladi. Shartnoma mohiyatiga ko‘ra, insonlar o‘z huquqlarining bir qismini davlatga o‘tkazadi va unga buysunadi, davlat esa ularning mulkini, ozodligini va xavfsizligini ta’minlash majburiyatini oladi.

Zo‘ravonlik nazariyasi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga kelgan. Uning vakillari Ye.Dyuring, L.Gumplovich, K.Kautskiy va boshqalar hisoblanadilar. Bu nazariya vakillari davlatning vujudga kelishiga zo‘ravonlik – urush va bosib olishni asos sifatida ta’kidlaydilar. Ya’ni bunda kuchli bo‘lgan qabila o‘zidan kuchsiz bo‘lgan qabilani bosib olish orqali o‘z hukmronligini o‘rnatadi. Bunda davlat bosib olingan hududlarni (xalqlarni) boshqarish uchun zo‘rlov apparati vazifasini bajargan.

Materialistik (Marksistik) nazariya XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga kelgan. Uning vakillari K.Marks, F.Engels hisoblanadilar. Bu nazariya vakillarining fikricha, davlat eng avvalo iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bir-biriga qarama-qarshi sinflarning yuzaga kelishi natijasida vujudga kelgan. Bunda davlat iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron bo‘lgan tabaqalarning quyi tabaqalarni bostirib turish vositasi sifatida maydonga chiqqan

Davlatning paydo bo‘lishidagi irrigatsiya nazariyasi⁵ga ko‘ra, sug‘orish ishlarini amalga oshirish ulkan hajmdagi ishlarni bajarishni taqozo etgan. Jumladan, kanallar qazish, dambalar qurish, suv uzatish va boshqa sug‘orish inshootlari bunyod etish hamda boshqa irrigatsiya tarmoqlarini kengay-

⁵ Общая теория права и государства: Учебник / Под ред. В.В. Лазарева.
– Москва: Юристъ, 1996. – С.56.